3. Elektron chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish: Eskirgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli qurilmalarni ekologik havfsiz qayta ishlash hamda resurslarni ikkilamchi muomalaga qaytarish bo‘yicha maxsus infratuzilmani shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli va yashil transformatsiyalarning uyg‘unligi, ya’ni "qo‘shaloq o‘tish" (Twin Transition) mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda resurs tejamkor iqtisodiy modelni shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Raqamli infratuzilmaning o‘zini yashil axborot texnologiyalari tamoyillari asosida rivojlantirish va ma’lumotlar markazlarini qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta’minlash resurslar sarfini kamaytirish bilan birga milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. European Commission. (2022). The 2022 Strategic Foresight Report: Twinning the green and digital transitions in the new geopolitical context (Policy Report PDF). Publications Office of the European Union.

2. Global e-Sustainability Initiative. (2020). Digital with Purpose: Delivering a SMARTer 2030 (Research Report PDF). GeSI & Deloitte.

3. International Energy Agency. (2021). Digitalization and Energy: Opportunities and Challenges for the Energy Sector (Special Report PDF). IEA Publishing.

4. OECD. (2020). OECD Digital Economy Outlook 2020 (Full Report PDF). OECD Publishing.

5. United Nations Environment Programme. (2021). Making Peace with Nature: A scientific blueprint to tackle the climate, biodiversity and pollution emergencies (Global Assessment Report PDF). United Nations.

7. Zhironkin, S., & Cehlár, M. (2022). Green Economy and Sustainable Development: The Economic and Policy Aspects. Resources, 11(11), 103.

6. World Economic Forum. (2022). Harnessing Artificial Intelligence for the Earth (White Paper PDF). World Economic Forum in collaboration with PwC.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINI O‘RNI

Hayitboyev Firdavs Dilmurod o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistrant
E-mail: firdavshayitboyev6@gmail.com
G‘afforov Kamronbek Shovkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistrant
E-mail: kamrontsue777@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda yashil iqtisodiyot sharoitida soliq tekshiruvlari mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy, huquqiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida soliq tekshiruvlarini tashkil etishning

amaldagi mexanizmlari, soliq risklarini aniqlash va baholash tartibi hamda ekologik yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarida soliq majburiyatlari bajarilishini nazorat qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning soliq nazoratini raqamlashtirish, riskka asoslangan audit va ma’lumotlar tahliliga asoslangan tekshiruvlarni tashkil etish borasidagi tajribalari qiyosiy o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida xorijiy tajribani O‘zbekiston soliq ma’murchiligiga moslashtirish, yashil iqtisodiyot subyektlari uchun maxsus soliq risk indikatorlarini ishlab chiqish va soliq tekshiruvlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, soliq tekshiruvlari, soliq nazorati, soliq auditi, risk-tahlil, soliq ma’murchiligi, raqamlashtirish, ekologik investitsiyalar, soliq imtiyozlari, xalqaro tajriba, soliq risklarini boshqarish.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan ekologik va iqlimiy o‘zgarishlar iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy modelini qayta ko‘rib chiqish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va resurslardan samarali foydalanish tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida davlatning fiskal siyosati, xususan, soliq ma’murchiligi va soliq nazorati mexanizmlari muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Chunki davlat tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, tabiiy resurslarni tejash va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari hamda boshqa iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligi ularning qonuniy va maqsadli qo‘llanilishi ustidan nazoratni talab etadi. Ushbu nazorat ta’minlash maqsadida yashil iqtisodiyot sharoitida soliq tekshiruvlarining iqtisodiy mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: soliq tekshiruvlari ekologik yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyat subyektlarining soliq majburiyatlarini to‘g‘ri bajarishi, qonunchilikda belgilangan soliq imtiyozlaridan qonuniy foydalanishi va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq soliq majburiyatlarining to‘g‘ri hisoblanishini ta’minlovchi nazorat mexanizmidir. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining asosiy huquqiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan [1]. Mazkur strategiyada iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, Prezidentning 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori bilan 2030-yilgacha O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta’minlash dasturi tasdiqlangan. Unda 2010-yilga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga yetkazish va sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish kabi maqsadlar belgilangan [2].

O‘zbekiston Respublikasida soliq nazoratining huquqiy asoslari, shakllari va soliq tekshiruvlarini amalga oshirish tartibi Soliq kodeksining V bo‘limi, xususan, 17-bobida belgilangan. Soliq kodeksining 136-moddasiga muvofiq, soliq organlari tomonidan soliq nazorati soliq tekshiruvlari va soliq monitoringi shakllarida amalga oshiriladi. Kodeksning 137-moddasida esa soliq tekshiruvlarining quyidagi turlari nazarda tutilgan:

1. Kameral soliq tekshiruvi.
2. Sayyor soliq tekshiruvi.
3. Soliq auditi.
4. Transfer narxini shakllantirishni tekshirish.

2026-yil 1-yanvardan transfer narxini shakllantirishni tekshirish ham soliq tekshiruvlari turlariga kiritilgan. Shu tariqa soliq nazorati mexanizmlari soliq to‘lovchilarning faoliyat xususiyatlari va soliq risklaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda[3].

Xalqaro amaliyotda soliq tekshiruvlarini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlari, asosan, riskka asoslangan audit, raqamli monitoring, uchinchi tomon ma’lumotlaridan foydalanish va soliq to‘lovchilar faoliyatini avtomatlashtirilgan tahlil qilishga asoslanmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlarda soliq ma’murchiligi jarayonlarida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlaridan foydalanish kengayib bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa mazkur mexanizmlarni bosqichma-bosqich joriy etish, elektron hisobotlar va ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda tekshiruv obyektlarini risk darajasi bo‘yicha tanlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Tadqiqotimizda rivojlangan davlatlar shuni ko’rsatadiki, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2024-yildagi *Tax Administration 2024* hisobotida 58 ta yurisdiksiyaning soliq ma’murchiligi amaliyoti o‘rganilgan. Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, soliq ma’muriyatlarining 80 foizi o‘z faoliyatida katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanadi. Shuningdek, hisobotda qariyb yarmida sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalaridan risklarni baholash hamda firibgarlik holatlarini aniqlashda foydalanilayotgani qayd etilgan [4].Mazkur tajriba soliq tekshiruvlarini faqat soliq organlari xodimlarining bevosita tekshiruvi bilan cheklab qo‘ymasdan, axborot tizimlari orqali soliq risklarini oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasida yana bir muhim yo‘nalish soliq tekshiruvlarining natijalarini keyingi risk baholash jarayoniga integratsiyalash hisoblanadi. Bunda avvalgi tekshiruvlarda aniqlangan xatolar, soliq intizomi va soliq to‘lovchining faoliyatidagi o‘zgarishlar asosida kelgusidagi tekshiruvlar rejasi shakllantiriladi.

Rivojlangan davlatlar esa ya’ni Hindiston soliq ma’murchiligida Computer Aided Scrutiny Selection (CASS) tizimi muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizim soliq hisobotlari, uchinchi tomon ma’lumotlari va soliq to‘lovchilarning boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarini avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish orqali yuqori riskli soliq to‘lovchilarni aniqlaydi. Hindiston Moliya vazirligining 2021-yil 10-avgustdagi parlament javobida soliq tekshiruvlari uchun holatlar tasodifiy tanlanmasligi, balki CASS tizimi orqali soliqdan bo‘yin tovlash ehtimoli yuqori bo‘lgan subyektlar ma’lumotlar tahlili va 360 darajali profil asosida aniqlanishi qayd

etilgan [5]. Bundan tashqari, Hindistonda 2022-yildan elektron va shaxssiz baholash mexanizmlari kengaytirilib, tekshiruv jarayonlarida soliq to‘lovchi va soliq organi xodimi o‘rtasidagi bevosita aloqani kamaytirishga e’tibor qaratilgan.

Janubiy Afrika Respublikasi tajribasi ham soliq nazoratini raqamlashtirish borasida muhim ahamiyatga ega. Janubiy Afrika daromad xizmati (SARS) 2024-2025-moliya yilida sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish va real vaqt rejimidagi ma’lumotlar tahliliga asoslangan risklarni aniqlash mexanizmlarini qo‘llagan. SARSning 202-2025-yilgi yillik hisobotida avtomatlashtirilgan risklarni aniqlash tizimining aniqlik darajasi 99,84 foizga yetgani qayd etilgan. Shu davrda 3 757 ta audit yakunlanib, ular bo‘yicha 46 milliard Janubiy Afrika randiga teng soliq hisob-kitoblari amalga oshirilgan [6].Ushbu tajriba rivojlanayotgan davlatlarda ham zamonaviy raqamli texnologiyalar va risk-tahlil mexanizmlarini joriy etish orqali soliq tekshiruvlari natijadorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda soliq tekshiruvlari mexanizmlarining qiyosiy tahlili

Davlat	Soliq tekshiruvlari mexanizmi	O‘zbekiston uchun tatbiq etish imkoniyati
OECD mamlakatlari	Big Data, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish va riskka asoslangan nazorat	Soliq risklarini avtomatik baholash tizimini rivojlantirish
Hindiston	CASS orqali ma’lumotlar tahlili va yuqori riskli subyektlarni tanlash, elektron baholash	Soliq tekshiruvlari obyektlarini avtomatlashtirilgan tanlash
Janubiy Afrika Respublikasi	SARS tizimida sun’iy intellekt va real vaqt rejimidagi risk tahlili	Soliq va uchinchi tomon ma’lumotlarini integratsiyalash
O‘zbekiston	Kameral tekshiruv, sayyor tekshiruv, soliq auditi, transfer narxini tekshirish va risklarni boshqarish	Yashil iqtisodiyot subyektlari uchun maxsus risk indikatorlarini joriy etish

Manba: https://www.oecd.org/ sayti orqali muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, rivojlangan mamlakatlarda soliq tekshiruvlarini tashkil etishning asosiy xususiyati katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan risklarni aniqlash tizimlaridan foydalanishdir. Hindiston va Janubiy Afrika tajribasi esa rivojlanayotgan davlatlarda ham ushbu mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston amaliyotida soliq tekshiruvlarining huquqiy va tashkiliy asoslari mavjud bo‘lsa-da, yashil iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi maxsus risk indikatorlarini joriy etish va idoralararo axborot integratsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot sharoitida soliq tekshiruvlari mexanizmlarini takomillashtirish davlatning fiskal manfaatlarini ta’minlash, soliq imtiyozlaridan qonuniy foydalanishni nazorat qilish va ekologik yo‘naltirilgan investitsiyalarni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, xorijiy tajriba tahlili rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq tekshiruvlari samaradorligi riskka asoslangan yondashuv, raqamli monitoring va ma’lumotlar tahlili bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, Hindistonning CASS tizimi va Janubiy Afrika Respublikasining SARS amaliyoti soliq tekshiruvlari obyektlarini avtomatlashtirilgan tarzda tanlashning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda soliq tekshiruvlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari shakllangan bo‘lib, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi va transfer narxini shakllantirishni tekshirish mexanizmlari amalda qo‘llanilmoqda. Biroq yashil iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarining soliq risklarini aniqlash va baholash tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Uchinchidan, yashil iqtisodiyot subyektlari uchun maxsus soliq risk indikatorlarini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu indikatorlar soliq imtiyozlaridan foydalanish, investitsiya majburiyatlarining bajarilishi, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarni hisoblash va soliq hisobotlaridagi tafovutlarni aniqlash mezonlarini qamrab olishi lozim.

To‘rtinchidan, soliq organlari va ekologiya, energetika hamda investitsiya sohalaridagi vakolatli davlat tashkilotlari o‘rtasida elektron ma’lumot almashinuvi mexanizmlarini kengaytirish zarur. Bu soliq nazorati jarayonida ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirish va soliq risklarini oldindan aniqlash imkoniyatini oshiradi.

Beshinchidan, soliq tekshiruvlarini tashkil etishda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, tekshiruv natijalarini keyingi risk baholash jarayoniga integratsiyalash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. https://lex.uz/en/docs/7582760
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. https://lex.uz/uz/acts/6303233
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr, O‘RQ-599-son, amaldagi tahriri. https://lex.uz/uz/docs/4674893
4. OECD. (2024). *Tax Administration 2024: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/2d5fba9c-en
5. Government of India, Ministry of Finance. (2021). *Selection of Cases for Scrutiny of Income Tax under Faceless Assessment*. Rajya Sabha, Unstarred Question No. 2448, 10 August 2021.
6. South African Revenue Service. (2025). *SARS Annual Report 2024/25*. https://www.sars.gov.za/wp-content/uploads/Docs/StratAnnualPerfplans/SARS-AR-30-Annual-Report-2024-2025.pdf
7. https://www.oecd.org/
8. https://www.imf.org/